O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Ichki audit bo’yicha bosh mutaxassisining 2026-yil III chorak davomida amalga oshirgan ishlari natijalari to‘g‘risida

HISOBOT

Ichki audit boshqarmasi tomonidan 2026-yilning III-choragi davomida belgilangan ish rejasiga muvofiq, O‘zagroinspeksiya tizimidagi 6 ta hududiiy boshqarmalarda jami 9 ta rejali ichki audit tadbirlari o‘tkazildi. Natijada tasdiqlangan ish rejasining ijrosi 100 foizni tashkil etdi.

Hisobot davrida o‘tkazilgan ichki audit va masofaviy audit tadbirlari natijasida jami 47 ta holatda xato va kamchiliklar aniqlandi.

Shuningdek, o‘tkazilgan ichki audit tadbirlari davomida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida ularning takrorlanishining oldini olish hamda moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida tizimdagi 6 ta hududiiy boshqarmalarga jami 35 ta taklif va tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari, tizimli xato va kamchiliklarni bartaraf etish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda ichki audit faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- moliyaviy xato va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha 3 ta;
- budjet hisobini tashkil etish va yuritish bo‘yicha 3 ta;
- rivojlantirish dasturlari hamda maqsadli indikatorlar ijrosini baholash bo‘yicha 4 ta;
- ichki audit xizmati faoliyatini hamda u faoliyat yuritayotgan tizimlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha 1 ta.

Mazkur chora-tadbirlar tizim tashkilotlarida moliyaviy intizomni mustahkamlash, budjet mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanishni ta’minlash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda ichki audit faoliyatining natijadorligini oshirishga qaratilgan.

Ichki audit bo‘yicha
bosh mutaxassisi **V. Xubbimov**